

Date: 27th April-2026

JADID MA'RIFATPARVARLARINING FARZAND TARBIYASIGA OID
PEDAGOGIK QARASHLAR

Jumayeva Feruza Faxriddinovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi, p.f.f.d (PhD)

jumayevafera@gmail.com, 99-702-67-09

Fozilova Salima Navro'zbek qizi

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va

huquq ta'limi 4- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid namoyondalarining farzand tarbiyasiga oid pedagogik axloqiy ilmiy qarashlari bayon etilgan. Abdurauf Fitratning "Oila" asaridagi bola tarbiyalashda ota-onaning o'rni to'g'risidagi qarashlari bayon etilgan. Fitratning "Rahbari Najot" asarida farzand kamoloti ota-onaga bog'liq ekanligi to'g'risidagi fikrlari yoritilgan. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridagi farzandni qanday ilm ma'rifatli qilish kerakligi haqidagi qarashlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ilm, ma'rifat, odob, axloq, farzand tarbiyasi, konvensiya, jadid adabiyoti.

Har bir jamiyatning taraqqiyotga erishishida shu jamiyat a'zolari ong-u taffakurning qanchalik kamol topganligi muhim ahamiyatga ega. Xalqni ilm ma'rifatli qilib tarbiyalash borasida XIX asr oxiri XX asr boshlarida mamlakatning barcha qatlamlarini o'z g'oyalari asosida birlashtira olgan jadidlar aynan shaxsning tarbiyasida, go'zal xulqli bo'lishiga alohida urg'u berganlar. Buni "Jadidchilik" harakatining yetakchilaridan biri bo'lgan Abdurauf Fitratning quydagi so'zlariga e'tibor qaratamiz: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xadikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq". [1] Demak shaxs qanchalik ilm zakovatli bo'lishi ota - onaning o'z farzandlariga bergan tarbiyasiga bog'liq ekan. Farzand tarbiyasi bo'lishi uchun avvalo, ota-ona o'zida ilm ma'rifat, aql zakovat va go'zal odob-axloqni shakllantirmog'i lozim. Aynan Abdurauf Fitratning "Oila" asarida ham farzand tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Asarda shaxsning kamoloti faqat sog'liq va kuchdan iborat emasligi, balki aqlan va axloqiy jihatdan ham yuksalishi lozimligi ta'kidlangan.

Fitrat ijodiyotidagi eng muhim masalalardan biri uning islom dini g'oyalarini har taraflama chuqur o'rganib, tahlil etib, ulardan komil insonni imon- e'tiqod va insofli qilib tarbiyalashda foydalanishni targ'ib qilganligidir. Fitrat barkamol inson tarbiyasida axloqiy tarbiyaning o'rni juda katta deb biladi. Uning fikricha, axloqiy tarbiyaning vazifasi insonni axloqiy barkamol, barchaga foydali inson qilib tarbiyalashdan iborat. U hikmat, iffat, shijoat va adolatni asosiy axloqiy sifatlar deb hisoblaydi.

Fitrat oila tarbiyasi va jamiyatda ayollarning o'rni, masalalariga ham alohida to'xtaladi.



Date: 27th April-2026

Bola tarbiyasida onaning o'rnini juda kattaligini ko'rsatadi. Shu bilan birga tarbiyada oila, maktab va davlat hamkorligining zarurligini asoslaydi. Fitratning "Rahbari najot" asari to'la ravishda ta'lim va tarbiya masalalariga bag'ishlangan. Ushbu asarning "Avlod tarbiyasi masalalari" bobida "Oila vazifalaridan biri avlodni tarbiyalashdan iboratdur",- deya ta'kidlaydi.[2] Bundan tashqari, u bola tarbiyasi faqat oiladagina olib borilmasdan bu ish bilan keng jamoatchilik, davlat ham shug'ullanishi kerak ekanligini, chunki davlatning kelajagi ana shunday yoshlar qo'lida bo'lishini aytib o'tadi. Fitrat bolalar tarbiyani o'zi yashayotgan atrof-muhit va atrofidagi bolalardan olishlarini ta'kidlaydi. U ijtimoiy muhitning bola tarbiyasiga katta ta'sir o'tkazishini isbotlab beradi. Fitrat o'zining asarida: "Dunyoda izzat va saodat tolibi bo'lmagan birorta qavm yo'q. Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi",- deya yozadi Fitrat inson kamolotga yetishishi uchun doimo intilishi, harakat qilishi lozimligi, doim oldiga maqsadlar qo'yishi va unga erishish uchun kurashishi kerakligini uqtiradi.

Abdulla Avloniy ijodiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, inson aql zakovatiga ma'rifiy nuqtai nazaridan yondoshadi. "Idrok va zako deb ochuq fikrli xush tabiat, ziyarak bo'lmoqni aytilur" deydi.[3] Adib aql zakovatni tarbiya bilan bog'lar ekan, tarbiyachilarni tabib kabidir deydi. Tabib inson tanasidagi dardga davo topsa, tarbiyachi uning vujudidagi "jahol maraziga" yaxshi xulq va poklik bilan davolaydi deydi. Avloniy ham tarbiyachi sifatidagi ota-onaning o'zlarini ilm ma'rifatli qilish haqida gapiradi. Ota bazm maishatda kunni o'tkazsa, bunday ota o'zida yo'q tarbiyani qayerdan olib beradi?, degan savollarni o'rta tashlaydi. Bugungi kun qiyofasida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga e'tibor qaratsak, yosh avlodni ilm ma'rifatli va ma'naviyatli qilib tarbiyalash borasida "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda qarorida konsepsiya va uni amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi tasdiqlandi.[4] Konsepsiya strategik masalalarni o'z ichiga olsa, reja taktik masalalarni qamragan. Strategiya va taktika birgalikda uzviy olib qaralishi ma'naviy tarbiyaga yangicha yondashuvdir.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi: birinchi bosqich -oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr - homila davri, ikkinchi davr - bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr); ikkinchi bosqich - maktabgacha ta'lim 3 -6 (7) yoshgacha bo'lgan davr; uchinchi bosqich-umumiy o'rta ta'lim tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr -7 (6) - 10 yosh boshlang'ich sinf, ikkinchi davr - 11 - 17 yosh o'rta va yuqori sinflar); to'rtinchi bosqich - ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr - o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar - 17 - 30 yosh, ikkinchi davr - o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalarining o'quvchi-talabalari 15 - 22 (24) yosh).

Uzluksiz ma'naviy tarbiya bosqichlarining birinchi davri oilalarga yuksak mas'uliyat yuklaydi. Boshqa bosqichlarda tarbiya sub'ektlari bilan uzviy aloqadorlik xam



Date: 27th April-2026



oila zimmasida qolaveradi. Konsepsiyaning joriy qilinishi uzluksiz ma'anaviy tarbiya jarayonining tizimli tashkil etilishiga, tarbiya sohasining ilg'or innovasion texnologiyalar asosida takomillashuviga, yoshlarning Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlik, mas'uliyatlik, bag'ri kenglik, huquqiy madaniyat, innovasion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch kompetensiyalar bilan mustaqil hayotga kirib borishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Abdulla Avloniy " Tarbiya bizlar yo hayot-yo mamot, yo najot- yo halokat , yo saodat - yo falokat masalasidir" [5] deb bejiz aytmagan, chunki yosh avlodning o'sib ulg'ayib kamol topishi ham yoki razolatga yuz tutishi ham aynan tarbiyaning natijasidir. "Tug'ib tashlash bilan bo'lmas bola, bo'lg'ay balo sizga, Vujudi tarbiyat topsa bo'lur ul rahnamo sizga Temirchining bolasi tarbiyat topsa, bo'lur olim, Buzilsa xulqi, Luqmon o'g'li bo'lsa, bo'lg'usi zolim" .[6] Avloniyning yuqoridagi fikrlariga qaraydigan bo'lsak, farzand dunyoga keltirish bilan ota-onaning mas'uliyati tugamay, balki endi boshlanadi.

Tarbiya masalalariga e'tiborsiz qaralgan vaziyatda yuzaga keladigan ko'ngilsizliklar ham, u keltirib chiqaradigan zararli oqibatlar ham barchamizga ayon. Ammo bugun farzand tarbiyasi bilan shug'illanayotganlarga ana shu haqiqatni aytasangiz sizga: "Nima qilay, ishlamasang bo'lmasa!", "Ko'ryapsiz-ku, osonmas, hayot tashvishlari, bolalarning yeb-ichishi-yu, kiyim kechagi ...", "Ha endi o'zi omon bo'lsa, tarbiyasi bir gap bo'lar...". Yo'q, tarbiya "bir gap bo'ladigan" narsa emas! Uning uchun jon kuydirish shart. Mol-dunyo, kiyim-kechakka hirs qo'yish dardidan forig' bo'lib, tarbiya bilan shug'ullanish kerak.

Go'yo ko'pchilikning farzand tarbiyasi bilan band bo'lishga ortiqcha vaqti yo'q emish. Vaholanki, tarbiya masalalari bilan ortiqcha vaqtda emas, har daqiqada shug'ullanish darkor. Olimlar bir sutkada farzand tarbiyasi uchun faqatgina o'n ikki daqiqagina vaqt ajratadigan ota-onalar bor ekanini aniqlaganlar. Bu daqiqalar ham asosan dasturxon atrofida o'tirganda, bola ko'chaga chiqayotganda, maktabga ketayotgandan beriladigan kichik tanbehlariga sarf bo'lar ekan, xolos. Ota - onaning kasbi qanday bo'lishi va jamiyatdagi mavqeyidan qat'iy nazar farzandiga tarbiya bermasa, farzand u bir kun kelib zolim va ilm va hunarsiz kishiga aylanadi. Ota-onalar farzand hali homila paytidan boshlab tarbiya berishni boshlashlari lozim. Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan.

Albatta, ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, jadidlar dunyoqarashida jamiyatni taraqqiyotga erishishida avvalo, yosh avlodni tarbiyalash muhimligi ta'kidlanganligini ko'rib o'tdik. Farzand tarbiyasida ota -onalarga yordam beruvchi "Oila" va "Rahbari Najot" asarlaridagi fikrlar bilan tanishib chiqdik. Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar negizida ham "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiya"sining amaliyotga tatbiq etilishi

Date: 27th April-2026

jamiyatimizda ma'naviy axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi. Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida avvalo ota -ona o'zlari go'zal odob axloqiy bo'lishi kerak. Chunki farzand ota-onaning ko'zgusi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurauf Fitrat "Tanlangan asarlar" "Oila yoki oila boshqarish tartiblari". Toshkent. "Ma'naviyat" nashriyoti. 2009 yil. - 61b.
2. Abdurauf Fitrat. "Rahbari Najot" asari .-192b.
3. Abdulla Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq" . Toshkent.: "O'qituvchi" 1992.-31b.
4. <https://lex.uz/ru/docs/-4676839>
5. Abdulla Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq" . Toshkent.: "O'qituvchi" 1992 .-14b.
6. Shavkat Mirziyoyev. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish- xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. "Xalq so'zi", 2017-yil 4-avgust .
7. K. Hoshimov, S.Nishonova "Pedagogika Tarixi" Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent. 2005-yil. – 47 b

